

TDIU HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI



O'QUV USLUBIY  
MAJMUA

TOSHKENT-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIV-METODIK  
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIVOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**XORIVY MAMLAKATLAR IQTISODIVOTI VA  
MAMLAKATSHUNOSLIK (MAMLAKATLAR VA  
MINTAQALAR BO'YICHA)  
yo'nalishi**

**«XORIVY MAMLAKATLAR IQTISODIVOTI»  
moduli bo'yicha**

**O' Q U V – U S L U B I Y  
M A J M U A**

**Toshkent 2022**

**Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi:** Tuxliev N. – O'zXIA, “Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

**Taqrizchi:** Isadjanov A.A. – O'zXIA, “Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori.

**O'quv -uslubiy majmua Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining 2022 yil 31 yanvarda 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. MA'RUZA MATNLARI.....</b>	<b>17</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR.....</b>	<b>28</b>
<b>V. BITIRUV ISHLARI UCHUN MAVZULAR.....</b>	<b>33</b>
<b>VI. KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>34</b>
<b>VII. GLOSSARIY .....</b>	<b>36</b>
<b>VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>49</b>

# I. ISHCHI DASTUR

## Kirish

Ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo’yicha)” modulining **maqsadi** jahon iqtisodiyotiga oid nazariy va amaliy bilimlarni takomillashtirish, jahon iqtisodiyotidagi muammolarni aniqlash va baholash, iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha yangi bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish hisoblanadi.

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo’yicha)” modulining **vazifalari**:

– “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo’yicha)” yo’nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko’nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

– zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo’lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

– pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o’zlashtirilishini ta’minlash;

– mutaxassislik fanlar sohasidagi o’qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg’or xorijiy tajribalarni o’zlashtirish;

– “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo’yicha)” yo’nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta’minlash.

### **Modul bo’yicha tinglovchilarning bilimi, ko’nikma, malakasi va kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar**

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo’yicha)” modulini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### ***Tinglovchi:***

- jahon iqtisodiyotida mamlakatlarni tasniflashning mohiyati va mazmunini;

- xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko’ra tasnifini;

- agrar industrial va postindustrial mamlakatlarni;

- postindustrial mamlakatlarning guruhlanishini;

- Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyotini;

- yangi industrial mamlakatlarni guruhlashni;

- yangi industrial mamlakatlar rivojlanishidagi umumiy va o’ziga xos jihatlarni

***bilishi kerak.***

#### ***Tinglovchi:***

- xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko’ra tasniflash;

- postindustrial mamlakatlarning guruhlanishini baholash;

- postindustrial mamlakatlarda inson kapitalining rivojlanish va aholi turmush sifatini tadqiq qilish;

- Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar iqtisodiy salohiyatini taqqoslash ***ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim.***

#### ***Tinglovchi:***

- jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlash;

- postindustrial mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi tahlil qilish;
- yangi industrial mamlakatlar rivojlanishidagi umumiy va o'ziga xos jihatlarni tahlil qilish;
- jahon bozorida mahsulotlar hayotiylik davrini keskin qisqarishi, bozor kon'yunkturasi va iste'molchilar ehtiyojlarini tez o'zgarish sabablarini baholashga *oid malakalariga ega bo'lishi zarur.*

#### ***Tinglovchi:***

- xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti iqtisodiy munosabatlari sohasiga oid ilmiy seminarlarni o'tkazish va maslahatlarni berish;
- O'zbekistonning yangi industrial mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy xamkorligining rivojlanish istiqbollari tahlil qilish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini modernizatsiyalash hamda diversifikatsiyalash faoliyatni baholash, samaradorligini tahlil qilish;
- rivojlangan mamlakatlarning integratsion birlashmalarini qiyosiy baholash va ularga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish *kompetentsiyalarga ega bo'lishi zarur.*

#### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

O'quv jarayonida ta'limning interfaol o'qitish metod, shakl va vositalari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan:

- ma'ruza mashg'ulotlarida “Aqliy hujum”, “Kutish yo'ldoshi”, “Kontseptual jadval”, “O'ylang-juftlikda ishleng-fikr almashing” kabi interfaol o'qitish metod, shakl va vositalaridan;

- amaliy mashg'ulotlarda bahs-munozara, tushunchalar tahlili, aqliy hujum, keys, guruhlarda ishlash, SWOT-tahlil jadval, T-jadval kabi interfaol o'qitish metod, shakl va vositalarni qo'llash nazarda tutiladi.

#### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

O'quv moduli mazmuni o'quv rejadagi “Jahon iqtisodiyotining globallashuvi” hamda “Xalqaro iqtisodiy integratsiya” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda professor-o'qituvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Hozirgi globallashuv sharoitida Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotining predmeti va uni o'rganishni o'ziga xos xususiyatlari, xorijiy mamlakatlarning jahon iqtisodiyotining tarkibiy qismlari sifatidagi o'rni, mamlakatlarning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili, xorijiy mamlakatlarni guruhlash mezonlari kabi yo'nalishlarda nazariy va amaliy bilimlarni mujassamlashtirgan bo'lib, unda jahon mamlakatlari va milliy iqtisodiyotimizdagi islohotlarning kontseptual asoslari yoritib berilgan. Zamonaviy iqtisodchi – pedagog kadrlar uchun ushbu yo'nalishdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish talab qilinadi va bunda o'quv modulning roli yuqoridir.

## Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya o'quv yuklamasi			
		jami	jumladan		
Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		Ko'chma mashg'ulot		
1	Xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasnifi	4	2	2	
2	Postindustrial mamlakatlar iqtisodiyoti	8	2	6	
3	Osiyodagi yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti	8	2	6	
	<b>Jami:</b>	<b>20</b>	<b>6</b>	<b>14</b>	

### NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

#### 1-mavzu. Xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasnifi

Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarni tasniflashning mohiyati va mazmuni. Jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasniflash usullari. Agrar industrial va postindustrial mamlakatlar.

#### 2-mavzu. Postindustrial mamlakatlar iqtisodiyoti

Postindustrial jamiyatning mohiyati. Postindustrial kontseptsiyalar. Postindustrial mamlakatlarning guruhlanishi. Postindustrial mamlakatlar iqtisodiyotining xarakterli belgilari. Postindustrial mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi. Postindustrial mamlakatlarda YaIMning o'sish sur'atlari va unda IT ning o'rni. AQShning Kremniy (Silikon) vodiysi. Postindustrial mamlakatlarda inson kapitalining rivojlanish va aholi turmush sifati.

#### 3-mavzu. Yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti

Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti (YaIM).



Yangi industrial mamlakatlarni guruhlash. Yangi industriallikning mohiyati va xarakterli belgilari. Yangi industrial mamlakatlar rivojlanishidagi umumiy va o'ziga xos jihatlar. Yangi industrial mamlakatlar mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari va tarkibi. Import o'rnini bosishdan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishga o'tish. Modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish. Xizmat ko'rsatish va moliya bozori. Yangi industrial mamlakatlarning rivojlanishida qit'aning etakchi mamlakatlari (Yaponiya, Xitoy va Hindiston) va ASEAN, ATES-APEC uyushmalarning roli.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg'ulot (2 soat)**

#### **Xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasnifi**

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarni tasniflashning mohiyati va mazmuni.
2. Jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi.
3. Xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasniflash usullari.
4. Agrar, industrial va postindustrial mamlakatlar.

**Kalit so'zlar:** agrar mamlakat, agrar-industrial, industrial-agrar mamlakat, industrial, postindustrial mamlakat.

### **2-amaliy mashg'ulot.**

#### **Postindustrial mamlakatlar iqtisodiyoti (4 soat)**

Muhokama etiladigan masalalar:

1. AQSh va Kanada iqtisodiyoti, ularning NAFTAdagi o'rni va maqsadlari.
2. NAFTA va AQShning Janubiy Amerika mamlaktlariga iqtisodiy ekspansiyasi.
3. G'arbiy Evropa EIning postindustrial mamlakatlari.
4. Skandinaviya mamlakatlari (Finlandiya, Daniya, Norvegiya)ning rivojlanish modellari.
5. Buyuk Britaniya va EI munosabatlari. BREXIT.
6. EI integratsiyasidagi ziddiyatlar.
7. EI integratsiyasidagi davlatust tashkilotlari faoliyati.
8. Yaponiya iqtisodiy rivojlanishidagi muammolar. Yaponiya "ijtimoiy barkamollik" mamlakati.
9. Avstraliya va Yangi Zelandiya iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillari.
10. Isroil – innovatsion iqtisodiyot mamlakati.

**Kalit so'zlar:** NAFTA, ekspansiya, BREXIT, EI, innovatsiya, model, "ijtimoiy davlat", "ijtimoiy barkamollik davlati", G'arbiy Evropa, Skandinaviya, inson kapitali.

### **3-amaliy mashg'ulot.**

## **Yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti (4 soat)**

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Yangi industrial mamlakatlar rivodlanishida davlatning roli.
2. Koreya Respublikasining rivojlanishida chebollarning ahamiyati.
3. Gonkong – Xitoyning xabi.
4. Singapur – orol – shahar – davlat.
5. Tayvanning rivojlanishida chet el kapitalining o'rnini va ahamiyati.
6. Malayziya iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari.
7. Tailand iqtisodiyotida turizmning o'rnini.
8. Indoneziya – yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyotining eng yirigi.
9. Filippin – kontrastlar mamlakati.
10. Vetnam iqtisodiyotining rivojlanish modeli.
11. Turkiya iqtisodiyoti – Evropa va Osiyo qit'alari o'rtasidagi iqtisodiyot.

**Kalit so'zlar:** Yangi industrial mamlakatlar, Yalpi ichki mahsulot, IT, chebol, xab, eksportga yo'naltirilganlik, importning o'rnini bosish, modernizatsiya, diversifikatsiya, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliya bozori, ASEAN, ATEC – APEC.

## **KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

Modulning o'quv dasturida ko'chma mashg'ulotlar rejalashtirilmagan.

## **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modulning nazariy materialini o'zlashtirishda quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- **davra suhbatlari** (ko'rilayotgan loyiha echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- **bahs va munozaralar** (loyihalar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

- **Keng ko'lamli suhbat.** Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga tinglovchilarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar; so'zga chiquvchi tinglovchilarni kuchli va kuchsiz tomonlariga diqqatlarini qarata olishi; ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi qirralarni o'sha vaqtning o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik tinglovchilarning savollarini muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi.

- **Press-konferentsiya.** Qisqa so'zga chiqishdan so'ng, birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator tinglovchilarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. Shundan so'ng, har bir tinglovchi ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim.

- **Keyslarni (muammoli vaziyatlarni) echish.** Muammoli vaziyatlarni hal etish natijasida hosil bo'lgan, mustaqil izlab topilgan dalillar, kasbiy ahamiyatli yo'nalishlarni izlashga va tasdiqlashga, kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog'liqligini anglab etishga yordam beradi.

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

### «Blum kubigi» metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun “Ochiq” savollar tuzish va ularga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

1. Ushbu metodni ko'llash uchun, oddiy kub kerak bo'ladi. Kubning har bir tomonida ko'yidagi so'zlar yoziladi:
  - **Sanab bering, ta'rif bering (oddiy savol)**
  - **Nima uchun (sabab-oqibatni aniqlashtirovchi savol)**
  - **Tushintirib bering (muammoni har tomonlama qarash savoli)**
  - **Taklif bering (amaliyot bilan bog'liq savol)**
  - **Misol keltiring (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)**
  - **Fikr bering (tahlil qilish va baxolash savoli)**
2. O'qituvchi mavzuni belgilab beradi.
3. O'qituvchi kubikni stolga tashaydi. Qaysi so'z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

### “KWHL” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

#### Izoh. KWHL:

*Know – nimalarni bilaman?*

*Want – nimani bilishni xohlayman?*

*How - qanday bilib olsam bo'ladi?*

*Learn - nimani o'rganib oldim?.*

<b>“KWHL” metodi</b>	
<b>1. Nimalarni bilaman:</b> -	<b>2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:</b> -
<b>3. Qanday qilib bilib va topib olaman:</b>	<b>4. Nimalarni bilib oldim:</b> -

### **“W1H” metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

## “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• кучли томонлари
<b>W – (weakness)</b>	• заиф, кучсиз томонлари
<b>O – (opportunity)</b>	• имкониятлари
<b>T – (threat)</b>	• хавфлар

## “VEER” metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари таъширилган тарқатма материалларни



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади:



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва мавзу яқунланади.

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

### «Keys-stadi» metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda

foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

<b>Ish bosqichlari</b>	<b>Faoliyat shakli va mazmuni</b>
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil echimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.



### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda



foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

	<p><b>Тест</b></p>	<p><b>Муаммоли вазият</b></p>
	<p><b>Тушунча таҳлили (симптом)</b></p>	<p><b>Амалий вазифа</b></p>

### “Insert” metodi

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“V” – tanish ma'lumot.	
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.	
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?	

### III. MA'RUZA MATNLARI

#### 1-mavzu. Xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasnifi

##### Reja:

1. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarni tasniflashning mohiyati va mazmuni.
2. Jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi.
3. Xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasniflash usullari.

**Tayanch iboralar:** rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar va rivojlanmagan mamlakatlar, o'tish davri mamlakatlari.

#### 1. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarni tasniflashning mohiyati va mazmuni

Turli mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining turli – tumanligi iqtisodiy rivojlanish darajasinin qandaydir bitta nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda baholashga imkon bermaydi. Buning uchun quyidagi bir qancha asosiy ko'rsatkichlar va mezonlardan foydalaniladi: mutlaq va nisbiy YaIM (YaMM); milliy daromad va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad; milliy iqtisodiyotning tarmoqli strukturasi; mamlakat eksporti va importi strukturasi; aholi turmush darajasi va sifati va boshqalar. Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va uning jahon xo'jaligidagi ishtiroki – bu tarixiy tushunchadir. Milliy iqtisodiyot va butun jahon xo'jaligi rivojlanishining har bir bosqichi asosiy ko'rsatkichlar tarkibiga bu yoki u o'zgartirishlarni kiritadi.

Mamlakatning jahob xo'jaligida egallagan o'rnini aniqlash uchun bir qancha yondashuvlar mavjud bo'ladi. Ular orasida eng oddiysi bo'lib jaho iqtisodiyotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad darajasiga qarab mamlakatlar guruhlariga bo'lishdir. Bunday yondashuv BMT, XVF, XTTB tomonidan amalga oshiriladi (mamlakatlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mutlaq daromad ko'rsatkichlari har yili hisoblab boriladi). Masalan, XTTB daromad darajasiga qarab mamlakatlarni uch guruhga bo'ladi.

Jahon xo'jaligida mamlakatlarni tasniflash va ularning jahon takror ishlab chiqarish jarayonidagi rolini baholash uchun boshqa yondashuvlar ham mavjud.

Bugungi kunda jahonda yuqorida aytib o'tilgan ijtimoiy – iqtisodiy ko'satkichlarning o'xshashligi bilan xarakterlanadigan bir qancha davlatlar guruhlari mavjud.

Dunyo o'z ijtimoiy-iqtisodiy tabiatiga ko'ra nihoyat darajada xilma-xildir. Bugungi kunda mamlakatlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Bozor iqtisodiyotidagi sanoati rivojlangan mamlakatlar – bu mamlakatlar jahon xo'jaligining tayanchi hisoblanadi;
2. Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniyaning rivojlanayotgan mamlakatlari (yoki uchinchi dunyo mamlakatlari);

3. O'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlar – bular asosan yangi xo'jalik yuritish shakllarini rivojlantirish yo'lida bo'lgan Sharqiy Evropa davlatlari, shuningdek Rossiyadan iborat bo'ladi.

Biroq ushbu mamlakatlar guruhlarini o'rtasida nihoyat darajada aniq chegarani belgilash imkonsizdir. Masalan, bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarning butun bir guruhini – Janubiy – sharqiy Osiyo mamlakatlari, xususan Janubiy Koreya, Gongkong va Tayvan, Braziliya va Argentina, shuningdek boshqa mamlakatlarni bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha jahonning sanoati rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiritish mantiqlidir. Biroq ular boshqa muhim ko'rsatkichlar darajasi bo'yicha (ijtimoiy qarama-qarshiliklarning chuqurligi, mintaqaviy rivojlanishning notekisligi va boshqalar) hali ham an'anaviy tarzda rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiradi.

Bir paytning o'zida shunhasiz rivojlangan mamlakatlar qandaydir ma'noda milliy ishlab chiqarish kuchlarini sifat jihatidan rivojlantirish borasida kechikishayotgan bo'lib, bu ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sishini to'xtatmoqda. Masalan, Sharqiy Evropa mamlakatlari va Rossiyada bu ko'rsatkich G'arbiy Evropa mamlakatlari rivojlanishining atigi 50% ini tashkil qiladi xolos.

## **2. Xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasniflash usullari**

Ma'lumki, jahon iqtisodiyoti murakkab mintaqaviy tuzilmaga egaligi bilan ajralib turadi. Analitik maqsadlarda xalqaro tashkilotlar jahondagi barcha mamlakatlarni uchta guruhga bo'lishadi:

- bozor iqtisodiyotidagi rivojlangan mamlakatlar;
- o'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlar yoki shakllanayotgan bozorga ega mamlakatlar;
- rivojlanayotgan mamlakatlar.

Bozor iqtisodiyotidagi rivojlangan mamlakatlar jahon bozorida va xalqaro mehnat taqsimotida etakchi rol o'ynaydi.

Rivojlangan mamlakatlar jumlasiga G'arbiy Evropaning deyarli barcha mamlakatlari, AQSh, Kanada, Yaponiya, Isroil, JAR, Avstraliya va Yangi Zelandiyani kabilari kiradi. Ushbu mamlakatlarning barchasi yuqori darajadagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga egaligi bilan xarakterlanadi.

O'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlar o'z ichiga Sharqiy Evropa, Rossiya, Albaniya, Xitoy, Vetnam, sobiq Ittifoq mamlakatlari, Mongoliya kabilarni oladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarga Osiyo, Afrika, Okeaniya, Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlari, Malta va sobiq Yugoslaviya mamlakatlari tegishli bo'ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar YaIM ning umumiy darajasi rivojlangan mamlakatlar YaIM ning to'rtinchi qismini tashkil qiladi.

Yuqorida keltirilgan mamlakatlar tasnifidan tashqari XVF mamlakatlarni quyidagicha guruhlaydi:

- mintaqaviy guruhlar bo'yicha (Afrika, Markaziy va Sharqiy Evropa, Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari, O'rta Sharq, G'arbiy yarimshar);

- analitik guruhlar, shu jumladan eksport tushumlari manbalari (yoqilg'i, noyoqilg'i, birlamchi qayta ishlov beradigan mahsulotlar) bo'yicha;

- tashqi moliyalashtirish manbalari bo'yicha (netto – qarzdor mamlakatlar).

Umuman olganda turli xil xalqaro tashkilotlar mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra turli guruhlash usullariga ega bo'ladi.

### **3. Mamlakatlarning an'anaviy tasnifi: rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar va rivojlanmagan mamlakatlar**

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar-jahon iqtisodiyotining asosiy subektlaridan biri hisoblanadi. Ushbu guruhga 30 dan ortiq mamlakatlar kiradi va ba'zan shu mamlakatlar "sanoati taraqqiy etgan" mamlakatlar deb ataladi.

Sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlar xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri- daromadlarning aholi qatlamlari o'rtasida nisbatan tekis taqsimlanishi va mamlakatlar iqtisodiyoti ijtimoiy yo'naltirilganligidir. Xususan: aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash; ilm-fanni rivojlantirishga katta miqdorda mablag' sarflash (YaIMning 2-3%); ilm-fan yutuqlarining ishlab chiqarishga sarflanishi; tibbiyot, ta'lim, madaniyat sohalariga sarflanayotgan yuqoriligi (YaIMning 3-4%).

XX-XXI asrlar boshida jahon xo'jaligida rivojlangan mamlakatlarning tutgan o'rni juda katta bo'lib, bunday guruhga kiruvchi davlatlar asosan Evropa qit'asi va Shimoliy Amerika materigida joylashgandir. Ma'lumki, rivojlangan «katta ettilik» davlatlar (hozirgi kunda ushbu davlatlar guruhiga Rossiya Federatsiyasini qo'shilishi bilan «katta sakkizlik» davlatlar degan so'zlar ham jahon iqtisodiyotida ishlatilmoqda) iqtisodiyotini rivojlanishi asosan tabiiy resurslardan qanday foydalanishlik darajasiga va Shuningdek uzoq yillarga mo'ljallangan zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotdagi o'zgarishlarga bog'liqdir.

Jahon xo'jaligi rivojlanishida etakchi sanoati rivojlangan mamlakatlar (AQSh, GFR, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Italiya) iqtisodiyoti muhim rol o'ynamoqda. Ushbu mamlakatlar ulushiga rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarning 79-80%i va dunyo mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarning 59-60%i, tovarlar eksportining 60-61%i va xizmat ko'rsatish sohalarining 49- 50%i to'g'ri kelmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar. Bugun kapital oqimida ularning ulushi 30 foizni tashkil etsa, 20 yildan so'ng bu ko'rsatkich 50 foizga etadi. 15-20 yildan so'ng dunyoda sarmoya qilingan har bir dollarning 60 senti rivojlanayotgan mamlakatlarga kiritiladi. Bu juda katta o'zgarish. XX-asrning 60-yillaridan boshlab to XXI-asr boshigacha sarmoya sifatida kiritilgan har bir dollardan atigi 20 senti rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri kelgan.

Kelajakda rivojlanayotgan mamlakatlar infratuzilma va xizmatlar, shu jumladan ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga katta mablag' ajratishga qodir bo'ladi. Savodxonlik oshishi bilan fuqarolarning pul topish imkoniyatlari ham kengayadi, bu kambag'allikni kamaytirishga yordam beradi.

Rivojlanmagan mamlakatlarga Afrikada 33, Osiyoda 10, Amerika qit'asida 1 va Okeaniyada 5 mamlakat kiradi. Misol uchun Afrikada Efiopiya va Burundi; Osiyoda Afg'oniston va Bangladesh; Okeaniyada esa Kiribati va Samo kabilar kiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi hisobotida qayd etilishicha, rivojlanmagan mamlakatlar iqtisodiyoti zamonaviylashmas ekan, qashshoqlikni engish qiyin.

BMT hisobotida yozilishicha, jahondagi eng rivojlanmangl 49 mamlakat global iqtisodiy tanazzul girdobi ostida qolmaslik uchun qo'ldan kelgan barcha choralarni ko'rgan, lekin tushkunlikdan butunlay qutula olmayapti.

Bu jamiyatlar qashshoqlikni engish yo'lida chet eldan sarmoya oqimini oshirib, tizimni isloh qilib, serdaromad sohalarni kengaytirgan holda, xizmat ko'rsatish sektorini ham yaxshilashi zarur. Rivojlanmagan mamlakatlarda iqtisodiyot juda cheklangan bo'ladi.

Bugungi kunda rivojlanmagan mamlakatlarda savdo-tijorat yomon emas, ammo eksport neft va gaz yoki arzon tovarlardan iborat. Ular faqat bularga qaram bo'lib qolmasliklari kerak ekanligi ko'plab xalqaro hisobotlarda keltirib o'tiladi.

Bugungi kunda Osiyoda rivojlanmagan davlatlar iqtisodiyotda yangi sektorlar ochib, xilma-xil mahsulotlar va xizmatlar taklif etish evaziga qaddini rostlay boshlagan.

Shuni ta'kidlash joizki, globallashuv ko'plab jamiyatlarda innovatsiya va rivojlanishga olib kelgan bo'lsa, ayrim rivojlanmagan davlatlarda buning aksi sezilmoqda.

### **Nazorat savollari**

1. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarni tasniflashning mohiyati va mazmuni.
2. Jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi.
3. Xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasniflash usullari.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O. P. Timoshenko, E. A. Pavlenko, O. A. Silich. Vneshneekonomicheskaya deyatelnost predpriyatiya: uchebnoe posobie. - Novosibirsk: Sibstrin, 2008.
2. S. P. Maltsev, M. V. Soloveva. Vneshneekonomicheskaya deyatelnost: uchebnoe posobie. — M.: Izd-vo MGOU, 2010. — 213 s.
3. Nigmatullina R. A. Vneshneekonomicheskaya deyatelnost v sfere uslug: uchebnoe posobie po spetsialnosti 100103.65 «Sotsialno – kulturniy servis i turizm». – Ufa: UGUES, 2013. – 80 s.

## **2-mavzu. Postindustrial mamlakatlar iqtisodiyoti.**

### **Reja**

1. Postindustrial jamiyatning mohiyati.
2. Postindustrial kontseptsiyalar.

3. Postindustrial mamlakatlarning guruxlanishi.
4. Postindustrial mamlakatlarning iqtisodiyotining xarakterli xususiyatlari.
5. Postindustrial mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi.
6. Postindustrial jamiyatning ijtimoiy tarkibi.

## **Tayanch iboralar**

Postindustrial jamiyat, YaIM, postindustrial kontseptsiyalar, futurolog, deindustrializatsiya, investitsiya, texnologiya, IT, intellektual sinf, kognitariat, inson rivojlantirish indeksi.

### **1. Postindustrial jamiyatning mohiyati**

Postindustrial jamiyatning industrial jamiyatdan bosh farqli belgisi o'ta yuqori mehnat unumdorligi, yuqori turmush darajasi, iqtisodiyotda yuqori texnologiyali va venchur biznesiga ega innovatsion sektorning ustunligi, tovar va xizmatlarning raqobat afzalligidir. Yanada muxtasar qilib aytganda postindustrial jamiyatning mohiyati aholi turmush darajasining o'sishi, innovatsion iqtisodiyotning, jumladan bilimlar industriyasining, xizmat ko'rsatish sohasining ustun rivojlanishida o'z ifodasini topadi.

Xizmat ko'rsatishning sanoat ishlab chiqarishdan ustunligi ishlab chiqarish hajmining pasayishini bildirmaydi. Bu xajm postindustrial iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish hajmiga nisbatan sekinroq o'sadi holos. Shu vaqtning o'zida xizmat ko'rsatish hajmining o'sish to'g'ridan to'g'ri aholi turmush darajasining o'sishi, xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion rivojlanishi, iste'molchilarga turli tuman innovatsion xizmatlarni ustun darajada etkazib berish bilan bog'liq. Bunga misol qilib internet va boshqa aloqa vositalarini keltirish mumkin. Yangi innovatsion xizmatlar hisobiga aholi turmush sifatini oshirish imkoniyatlari cheksiz.

### **2. Postindustrial kontseptsiyalar**

“Postindustrializm” atamasi hind olimi Amand Kumarasvami tomonidan XX asr boshlarida ilmiy muomalaga kiritilgan. Aslida u Osiyo mamlakatlari rivojlanishining industrializmga bo'lgan davr bo'yicha ixtisoslashgan. Bu ta'limot hozirgi ma'noda o'tgan asrning 50-yillari oxirida Garvard universitetining professori futurolog olim Deniel Bell tomonidan rivojlantirildi. 1973 yilda uning “Gryadushee postindustrialnoe obshchestvo” kitobi chop etildi.

Postindustrial nazariyasiga yaqin informatsion jamiyat kontseptsiyasi ham mavjud. Undan tashqari “postiqtisodiy”, “postmodern”, “uchinchi to'liq”, “to'rtinchi formatsiya”, “ilmiy-axborot bosqichi” degan kontseptsiya va tushunchalar ham mavjud. Ayrim futurolog olimlarning fikricha, postindustrializm er tsivilizatsiyasi rivojlanishida “postinson” jamiyatiga o'tishda dastlabki bosqich, xolos.

### **3. Postindustrial mamlakatlarning guruhlanishi**

Postindustrial iqtisodiyotni shakllantirgan mamlakatlar soni unchalik ko'p emas. Ularning umumiy soni 20 ta atrofida bo'lib, ular dunyoning Evropa, Osiyo, Amerika va Avstraliya qit'alarida joylashgan.

G'arbiy Evropadagi barcha mamlakatlar – Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Irlandiya, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Monako, Gollandiya, Frantsiya va Shveysariyani, Shimoliy Evropadagi – Daniya, Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiyani, Janubiy Evropadan Andorra, Ispaniya va Italiyani postindustrial mamlakatlar jumlasiga kiritish mumkin. Evropada Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Italiya kabi yirik “donor” mamlakatlar, shuningdek, Lixtenshteyn, Monako, Andorra kabi karlik mamlakatlar mavjud. Sharqiy Evropadagi postsotsialistik mamlakatlar o'z taraqqiyot darajasi bo'yicha EI, ayrimlari esa Evrozonaga birlashgan. Ular G'arbiy va Shimoliy Evropa mamlakatlaridan hali ancha orqada.

Shimoliy Amerikada joylashgan AQSh va Kanada eng yirik postindustrial mamlakatlar jumlasiga kiradi. Ular Shimoliy Amerika alyansi (NAFTA)ning asosiy davlatlari bo'lib, Janubiy Amerika mamlakatlariga chiqish uchun Meksikaning hududiy imkoniyatlari va infratuzilmasidan foydalanishni ko'zlaydi.

Osiyodagi Yaponiya va Isroil davlatlari iqtisodiyoti ham postindustrial hisoblanadi.

Avstraliya va Yangi Zelandiya mamlakatlarini ham postindustrial iqtisodiyotga kiritish uchun etarli asoslar bor.

#### **4. Postindustrial mamlakatlar iqtisodiyotining xarakterli xususiyatlari**

Postindustrial iqtisodiyotning yana bir xarakterli xususiyati investitsion jarayon bilan bog'liq. Ma'lumki industrial iqtisodiyot investitsiyalarning to'planuviga asoslanadi. Postindustrial iqtisodiyotda kapitalning pul jamg'armasi orqali to'planuvi keskin pastga tushib ketdi. Yangi jamiyatda asosiy ishlab chiqarish resursi-kishilarning malakasi. Buni esa ishlab chiqarishga investitsiyalarni o'stirish orqali amalga oshirib bo'lmaydi. Bu faqatgina investitsiyalarni inson kapitaliga oshirish va iste'molni kuchaytirish, shu jumladan, ta'lim xizmatlari, inson salomatligiga yo'naltirish orqali amalga oshiriladi. Natijada kishilarda shaxsiy o'sishga, ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga vaqt va imkoniyat ko'payadi. Bu sifatlar esa postindustrial iqtisodiyot uchun nihoyatda zarur.

Postindustrial iqtisodiyotda investitsion biznesning yangi turi-venchur biznesi rivojlanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, bir vaqtning o'zida ko'pgina ishlanma va istiqbolli loyihalar moliyalashtiriladi. Muvaffaqiyatli chiqan loyihalardan keladigan yuqori foyda qolganlarining zararini qoplaydi.

Postindustrial iqtisodiyotda bilimlar kapitaldan ustunlik qiladi. Hozirgi IT industriya kichik, jiddiy moliyaviy resurslarga ega bo'lmagan firmalardan boshlangan.

Postindustrial iqtisodiyotda korporatsiyalarning kapitali asosan nomaterial aktivlar – nou xau, ishlovchilarning malakasi, biznes strukturasi samaradorligi bilan belgilanadi. Birgina Microsoft firmasining kapitallashuvi yirik qazib olish (undirish) kompaniyalarining kapitallashuviga muvofiq keladi, aslida uning moddiy aktivlari unchalik katta emas.

Postindustrial iqtisodiyotning yana bir belgisi ommaviy ishlab chiqarish ahamiyatining pasayishi uning boshqa mintaqalarga ko'chirilishi va o'rta biznesning kuchayishi bilan xarakterlanadi.

Postindustrial iqtisodiyotning muhim xarakterli belgilaridan yana biri texnologik o'zgarishlardir. Industrial iqtisodiyotda texnologik taraqqiyot, asosan amaliyotchi-ixtirochilar kashfiyoti orqali amalga oshiriladi. Hozirgi iqtisodiyotda esa ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyati keskin oshadi.

Postindustrial iqtisodiyotda fan sig'imi yuqori resurs tejaydigan va axborot-texnologiyalari (yuqori texnologiyali) ishlab chiqarishning ahamiyati ortadi. Ular mikroelektronika, dasturlash ta'minoti, telekommunikatsiya, robot texnikasi, nano va biotexnologiya tarmoqlaridir. Axborotlashtirish jamiyat hayotining barcha jabhalari – ne'matlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, uy xo'jaligi hatto madaniyat va san'at sohalariga ham kirib boradi.

**5. Postindustrial mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi**  
*Postindustrial mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi,*  
*YaIM bo'yicha, foizda*

№	Mamlakatlar	YaIM 100 foiz		
		Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Xizmat ko'rsatish
1.	AQSh	1,0	21,0	78,0
2.	Kanada	2,3	26,4	71,3
3.	Buyuk Britaniya	1,3	24,2	74,5
4.	Germaniya	1,1	34,5	64,4
5.	Frantsiya	2,4	26,5	71,1
6.	Italiya	3,3	28,5	68,2
7.	Avstriya	2,0	29,0	69,0
8.	Shvetsiya	2,0	28,0	70,0
9.	Daniya	1,2	24,4	74,4
10.	Norvegiya	2,3	39,0	58,6
11.	Finlyandiya	3,0	26,0	71,0
12.	Yaponiya	1,2	27,7	71,1



13.	Isroil	2,5	28,0	70,0
14.	Avstraliya	12,0	28,0	70,0
15.	Irlandiya	0,98	39,3	59,6

## 6. Postindustrial jamiyatning ijtimoiy tarkibi

Bir qator tadqiqotchilar postindustrial jamiyatni “professionallar jamiyati” sifatida xarakterlaydi. Bu jamiyatning asosiy sinfi (tabaqasi) intellektuallar bo’lib, hokimiyat meritokratiya, ya’ni intellektual elita qo’lida bo’ladi. Postindustrial jamiyat asoschilaridan biri D.Bell “postindustrial jamiyat intellektual sinfnining kelishini taqozo qiladi, qaysikim ularning vakillari siyosiy darajada maslahatchilar, ekspertlar yoki texnokratlar sifatida qatnashadilar. Hozirning o’zida “ta’lim bo’yicha mulkiy tabaqalanish” tendentsiyasi yaqqol ko’zga tashlanib turibdi” deb ta’kidlaydi.

Taniqli iqtisodchi P.Drukerning fikricha “bilim xodimlari”, “bilimlar jamiyatida” ko’pchilikni tashkil qilmasada uning etakchi sinfiga aylanib ulgurgan”.

Yangi intellektual sinfni belgilash uchun futurolog olim E.Toffler “kognitariat” atamasini kiritadi.

Postindustrial jamiyatda hodimlarning malakasi asosiy “ishlab chiqarish vositasi”ga aylanadi. Bu ma’noda ishlab chiqarish vositasi ishchining o’ziga tegishli bo’ladi, shuning uchun ham kompaniya uchun hodimning qadri keskin oshadi. Natijada kompaniya va intellektual hodim o’rtasidagi munosabatlar o’zaro hamkorlikka aylanib boradi, ish beruvchiga bog’liqlik keskin pasayadi. Asta-sekinlik bilan kompaniyada nafaqat ishchi, shu bilan birga boshqaruv funktsiyalari, eng yuqori rahbariyatgacha yollanma hodimlar tomonidan bajariladigan bo’ladi. Ularning mulkdor bo’lishi mutlaqo shart bo’lmaydi.

### Nazorat savollari

1. Postindustrial jamiyatning industrial jamiyatdan farqli jixatlari.
2. Postindustrial kontseptsiyalar va ularning nazariyotchilari.
3. Qaysi mamlakatlarni postindustrial deb xisoblash mumkin va nima uchun?
4. Postindustrial mamlakatlar rivojlanishida ITning o’rni.
5. Postindustrial jamiyatning ijtimoiy tarkibi.

### Adabiyotlar

1. Porter Maykl. Konkurentnaya strategiya M., 2005.
2. Mirovaya ekonomika: globalnie tendentsii za 100 letie. – M.: Ekonomist’, 2003.
3. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Postindustrialnoe\\_obshchestvo](https://ru.wikipedia.org/wiki/Postindustrialnoe_obshchestvo)
4. [https://nonews.co/directory/countries/gdp\\_temp](https://nonews.co/directory/countries/gdp_temp).

## 3-mavzu. Yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti.

## Reja

1. Yangi industrial mamlakatlar tasnifi va mezonlari.
2. Birinchi to'liq yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti.
3. Ikkinchi to'liq yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti.
4. Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti.
5. Xitoy va Hindiston iqtisodiyoti.

## Tayanch iboralar

“Birinchi to'liq YaIM”, “ikkinchi to'liq YaIM”, industrlashtirish, diversifikatsiyalash, eksportga yo'naltirilganlik, import o'rnini bosish, liberallashtirish, “Osiyo yulbarslari”, “Osiyo kichik ajdaxolari” koreys chebollari.

### 1. Yangi industrial mamlakatlar tasnifi va mezonlari

XX asr oxirida rivojlanayotgan mamlakatlar umumiy tarkibida global o'zgarishlar yuz berdi. Ular tarkibidan yangi industrial mamlakatlar (YaIM) ajralib chiqdi.

Birinchi to'liq YaIMga Janubiy Koreya, Tayvan, Gongkong va Singapur kiritildi va ular “Osiyo kichik ajdarholari (yo'lbarslari)” degan umumiy nom bilan yuritila boshladi.

Ikkinchi to'liq YaIMga esa Malayziya, Tailand, Indoneziya, Filippin, Turkiya, Vetnam kiritildi. Shuningdek Lotin Amerikasidan Argentina, Braziliya, Meksika va Chili, Osiyodan yana Xitoy va Hindiston ham YaIM tarkibiga kiritiladigan bo'ldi.

YaIM tarkibiga kiritilishiga asos bo'ladigan mezonlar nimalardan iborat?

- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi;
- YaIMning o'rtacha yillik o'sishi sur'atlari;
- YaIMda ishlov beruvchi sanoat ulushining 20 foizidan kam bo'lmasligi;
- umumiy eksporda sanoat mahsulotlari eksporti ulushining 70 foizdan ziyodligi;
- bevosita investitsiyalarning chet mamlakatlardagi hajmi

Yangi industrial mamlakatlarni shartli ravishda ikkita taraqqiyot modeliga ajratish mumkin:

- milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ustun darajada tashqi bozorga (eksportga) yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat (Janubiy Koreya, Tayvan, Gongkong, Singapur);
- milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda import o'rnini bosishga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat (Argentina, Braziliya, Meksika, Chili va Osiyodagi ayrim 2-to'liq yangi industrial mamlakatlar).

### 2. Birinchi to'liq yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyoti.

*Birinchi to'liq yangi industrial mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida sanoatning o'rni, foizda*

Mamlakatlar	1950	1960	1970	1980	1990	2000	2011	2015	2017
Koreya Respublikasi	11	21	30	37	37	36	39	39	39,4
Singapur	--	18	30	38	35	34	27	27	24,8
Tayvan	24	29	41	51	38	32	24	24	24,0
Gongkong	17	34	37	31	23	13	8	7,7	7,7

***Birinchi to'liqin yangi industrial mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida xizmat ko'rsatish sohasining o'rni ( foizda)***

Mamlakatlar	1950	1960	1970	1980	1990	2000	2011	2015	2017
Koreya Respublikasi	39	42	43	47	49	57	58	59	57,6
Singapur	-	79	67	61	67	64	72	72	75,2
Tayvan	44	43	44	42	58	66	73	73	73
Gonkong	80	62	61	68	75	87	92	92,3	92,3

**3. Ikkinchi to'liqin yangi idustrial mamlakatlar iqtisodiyoti.**  
***Ikkinchi to'liqin yangi industrial mamlakatlar***  
***YaIMida sanoatning ulushi (foiz)***

Mamlakatlar	1950	1960	1970	1980	1990	2000	2013	2017
Indoneziya	72	13	18	42	39	46	47	40,3
Filippin	21	24	30	37	34	32	30	34,0
Tayland	15	19	25	29	37	42	39	36,2
Malayziya	-	19	20	41	42	48	40	36,8
Vetnam	-	-	-	-	23	37	38	39,0
Turkiya	16	23	29	31	32	31	24,7	27,1

***Ikkinchi to'liqin yangi industrial mamlakatlar***  
***YaIMida xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi (foiz)***

Mamlakatlar	1950	1960	1970	1980	1990	2000	2013	2017
Indoneziya	32	32	33	34	41	38	39	45,9
Filippin	40	44	43	36	44	52	55	58,6
Tailand	28	42	46	46	50	49	50	55,6
Malayziya	4	41	42	36	44	43	55	56,2
Vetnam	-	-	-	-	39	39	43	44,0
Turkiya	35	38	43	50	50	57	66	64,3

Yangi idustrial mamlakatlarni xarakterlaydigan mezonlar ichida asosiylari, hal qiluvchilari iqtisodiy o'sish sur'atlari va industrilashtirish darajasi bo'lib hisoblanadi. Yangi industrial mamlakatlar, ayniqsa birinchi to'liqin mamlakatlari bu ko'rsatgichlar

bo'yicha nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlarni, balki sanoati rivojlangan mamlakatlarni ham ortda qoldirdi. Agar ularda yillik iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha 7-10 foiz bo'lsa, G'arb mamlakatlarida bu ko'rsatkich 2-5 foiz oralig'ida bo'ldi. Masalan, 1980-1990- yillarda o'rtacha yillik o'sish sur'atlari Janubiy Koreyada - 9,9, Tayvanda - 8,3, Gongkongda - 7,1, Singapurda - 6,3 foizni tashkil etdi.

### **Nazorat savollar**

1. Birinchi to'lqin YaIMga kimlar kiritiladi va nima uchun?
2. Ikkinchi to'lqin YaIMga kimlar kiritiladi va nima uchun?
3. Osiyo "yo'lbarzlari" va "kichik ajdaxolari" kimlar va nima uchun shunday nomlarni olgan?
4. Yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi qanday?
5. Nima uchun import o'rnini bosish siyosatidan eksportga yo'naltirilganlik siyosatiga o'tildi?

### **Adabiyotlar:**

1. Potapov M.A., Salitskiy A.I., Shaxmatov A.V. *Ekonomika sovremennoy Azii.*- M.: "Mejdunarodnie otnosheniya", 2011.
2. *Ekonomika razvivayushchixsya stran.*-M.: "Gumanitariy", 2004.
3. Paxomova L.F. *Modeli protsvetaniya*(Singapur, Malayziya, Tailand, Indoneziya), M.: Institut vostokovedeniya RAN, 2007.
4. Tuxliev N. *Osiyo taraqqiyot modeli*, T.: "Uzbekistan" 2015.

## **IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR**

## AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulot **maqsadi** tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Mashg'ulotlar respublikamizdagi ilg'or korxonalar va tashkilotlarda o'tkaziladi hamda amaliy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan amaliyotchilar bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Mashg'ulot davomida tinglovchilar jahon iqtisodiyotiga ta'luqli bo'lgan ma'lumotlar yig'ishni tashkillashtirish va ularning sifatini baholash; kuzatishlar natijasida olingan ma'lumotlarni tizimlash va qayta ishlash; ma'lumotlarni qayta ishlash natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish amaliy ko'nikmalar hosil qiladilar.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### 1-amaliy mashg'ulot:

### Xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasnifi

Muhokama etiladigan masalalar:

#### 1. Xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasnifi

Dars shakli: Debat usuli. Muhokama etiladigan masalalar va keys - stadi.


“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"><li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li><li>✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li><li>✓ axborotni umumlashtirish;</li><li>✓ axborot tahlili;</li><li>✓ muammolarni aniqlash</li></ul>
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"><li>✓ individual va guruhda ishlash;</li><li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li><li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li></ul>
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"><li>✓ individual va guruhda ishlash;</li><li>✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish;</li><li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li><li>✓ muqobil echimlarni tanlash</li></ul>
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"><li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li><li>✓ muqobil variantlarni amalga qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li><li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li><li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish</li></ul>

#### 🔗 Muhokama uchun savollar

1. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarni tasniflashning mohiyati va mazmuni.
2. Jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi.
3. Xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasniflash usullari.

1. Rivojlangan mamlakatlarda xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini (“Baliq skeleti” texnikasi orqali yoritib bering).



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.G.Nazarova, Z.M.Iminov, X.X.Xalilov, O.B.Xamidov. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. -T.: TDIU, 2011.
2. Krugman. Obstfeld.Melitz. International Economics. 2014, Prentice Hall.
3. James Gerber. International Economics. Fifth Edition. Pearson, 2012. - 471 pages.

### 2-amaliy mashg’ulot.


#### Postindustrial mamlakatlar iqtisodiyoti.

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Rivojlangan mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari
  2. Postindustrial mamlakatlarning jahon xo’jaligida tutgan o’rni
- Dars shakli: Debat usuli.

#### 🔍 Muhokama uchun savollar

1. Rivojlangan mamlakatlarning xalqaro tovar almashinuvida tutgan urni va roli.
2. Xorijiy sarmoyalar - rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyotida qanday ahamiyatga ega? (“Baliq skeleti” texnikasi orqali yoritib bering).



- 3 Postindustrial mamlakatlarning jahon xo’jaligida tutgan o’rnini baholab bering.
- 4 Postindustrial mamlakatlarning rivojlanish modellari xususiyatlari.

### 3-amaliy mashg’ulot:

#### “To’rt osiyo ajdarhosi” mamlakatlari iqtisodiyoti

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Gonkong iqtisodiyoti, Gonkong iqtisodiyotida laises fair – ya’ni davlatning iqtisodiyotga deyarli aralashmasligi qanday roli.

2. Koreya Respublikasi iqtisodiyoti, Janubiy Korea iqtisodiyotining rivojlanishiga jahon va mintaqaviy inqirozlarning ta'siri.

3. Singapur iqtisodiyoti, Janubiy Sharqiy Osiyo hududi rivojlanishida Singapur davlatining iqtisodiy ahamiyati.

4. Tayvan iqtisodiyoti, Tayvan iqtisodiyotida sanoat rivojlanishining asosiy sabablari.

Dars shakli: Debat usuli.

### ✎ Muhokama uchun savollar

1. Mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlar tashkil etishning afzalliklari va zaif tomonlarini belgilang (grafik tashkil etuvchi – T-sxemadan foydalangan holda).

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari

2. FSMU texnologiyasi yordamida “Erkin iqtisodiy hududlar milliy iqtisodiyotlar rivojlanishi uchun ahamiyati nimada?”( savolini yo'naltiruvchi uslubiy tavsiyalar asosida echish).

Yo'naltiruvchi uslubiy tavsiyalar: resurslardan samarali foydalanish, xalqaro savdo, eksport, import va h.k.

Savol	“Erkin iqtisodiy hududlar milliy iqtisodiyotlar rivojlanishi uchun ahamiyati”
(F)-Fikringizni bayon eting	
(S)-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M)-Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring	
(U)-Fikringizni umumlashtiring	

**ФСМУ** технологияси қоидаси.

Ушбу технология мунозарали масалаларни хал этишда ҳамда ўқув жараёнини бахс-мунозарали ўтказишда қўлланилади, чунки бу технология талабаларни ўз фикрини химоя қилишга, эркин фикрлаш ва ўз фикрини бошқаларга ўтказишга, очиқ холда бахслашишга ҳамда шу билан бирга бахслашиш маданиятини ўратади. Тингловчиларга тарқатилган оддий қоғозга ўз фикрларини аниқ ва қисқа холда ифода этиб, тасдиқловчи далиллар ёки инкор этувчи фикрларни баён этишга ёрдам беради.

Ф – фикрингизни баён этинг

С – фикрингиз баёнига сабаб кўрсатинг

М – кўрсатган сабабингизни исботловчи мисол келтиринг

У – фикрингизни умумлаштиринг

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Howard Richards. Understanding the Global Economy. Peace Education Books, 2014. - 311 pages.
2. Chebotarev N.F. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnik dlya bakalavrov / N.F.Chebotarev..- M.:Dashkov i K, 2013.- 352 s.
3. A.A.Isadjanov. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. T.: JIDU, 2008, 36-57 b.

**4-amaliy mashg'ulot.**

**Xitoy iqtisodiyoti**

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Xitoy Respublikasiga umumiy tavsif.
2. Xitoyning iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy omillar, mamlakatning rivojlanishida “Xitoy model”ining ahamiyati.
3. Xitoyning jahon iqtisodiyotida tutgan o’rni. Jahon iqtisodiyotida Xitoyning egallagan pozitsiyasi. Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishida to’g’ridan - to’g’ri xorijiy investitsiyalar va erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o’rni.

Dars shakli: Debat usuli.


**🔍 Muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiy integratsiyaning afzalliklari va zaif tomonlarini belgilang (grafik tashkil etuvchi – T-sxemadan foydalangan holda).

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari



2. Integratsiyaning milliy iqtisodiyotlarga ta'siri («Kaskad» texnikasi orqali yoritib bering).



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Greg Ip. The Little Book of Economics: How the Economy Works in the Real World. John Wiley & Sons, 2012. - 288 pages.
2. Howard Richards. Understanding the Global Economy. Peace Education Books, 2014. - 311 pages.
3. Chebotarev N.F. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnik dlya bakalavrov / N.F.Chebotarev..- M.:Dashkov i K, 2013.- 352 s.

## V. BITIRUV ISHLARI UCHUN MAVZULAR

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti” modulidan bitiruv ishlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishni ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni (PF-4848. 05.10.2016 y.) da tadbirkorlik sub‘ektlarini qo‘llab-quvvatlash masalalari.

3. Prezident Sh.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni (7 fevral 2017 y.) maqsadi va vazifalari.

5. Jahon iqtisodiyotda Yangi industrial davlatlarning tutgan o‘rni.
6. Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davlatlarning iqtisodiy rivojlanish modellari.
7. Jahon xo‘jaligida iqtisodiy xavfsizlik muammolari.
8. Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarning tutgan o‘rni.
9. Jahon xo‘jaligida iqtisodiy o‘rish va ijtimoiy rivojlanish muammolari.
10. Erkin iqtisodiy hududlar va ularni tashkil etish muammolari.
11. Xalqaro raqobat va uning zamonaviy sharoitda yuzaga chiqish xususiyatlari.
12. Zamonaviy jahon xo‘jaligi sub‘ektlari va mamlakatning jahon iqtisodiyotdagi o‘rnini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimi.
13. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyati.
14. Xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik.
15. Jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat muammosi.
16. Germaniya Federativ Respublikasi iqtisodiyoti.
17. Frantsiya Respublikasi iqtisodiyoti.
18. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi iqtisodiyoti.
19. Italiya Respublikasi iqtisodiyoti va jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari.
20. Yaponiya iqtisodiyoti.

## VI. KEYSLAR BANKI

### **Philips kompaniyasi maishiy texnika ishlab chiqarish zavodlarini sotmoqda**

*Philips electronics* kompaniyasi maishiy texnika ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan bir nechta zavodlarini sotishni muljallamokda. Bundan tashqari *Philips* videomagnitofonlarini ishlab chiqarish xukuki Yaponiyaning **Funai Elesris** korporatsiyasiga beriladi. Gollandiya kompaniyasining bu qarori raqamli videodisklar ishlab chiqarish kabi video yozish soxasining juda mukammal rivojlanib ketishi bilan izoxlanadi. *Philips* ning maishiy bo'lim mudiri Gi Demeynkning fikriga ko'ra **Funai Elesris** bilan xamkorlik kompaniyaga dunyoda etakchi o'rinlardan birini saqlab qolishida qo'l keladi. Agar avval Yaponiyada *Philips* markasi bilan ishlab chiqarilgan videomagnitofonlar AQSh uchun sotilgan bo'lsa, endi bu maxsulot Evropa bozorini xam to'ldirishi ko'zda tutilgan.

Iyun oyida Gollandiya kompaniyasi raxbariyati foyda keltirmayotganligi sababli mobil telefonlar ishlab chiqarish xuquqini Xitoydagi qo'shma korxonaga berilishini e'lon kildi. Xarajatlarni qisqartirishga yo'naltirilgan restruktrizatsiya rejasi o'z ichiga ommaviy ravishda xodimlar shtatlarini qisqartirishni xam o'z ichiga oladi. Oldin 10 ming ta xodimni ishdan bo'shatish rejalashtirilgan edi. Restruktrizatsiya avvalo maishiy texnika soxasidagi xodimlarga qaratiladi. Taxlilchilar fikriga ko'ra, kompaniyani boshqarish kursi va yo'nalishi oldindan aytish mumkin, chunki *Philips* kompaniyasi maishiy texnikaning yangi turlarini ishlab chiqarishga xarakat qilmokda.

### **Topshiriklar**

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kaysi turi to'g'risida gap ketmokda? Kim uning sub'ekti xisoblanadi?
2. Ushbu xolatni xalqaro savdoning kaysi nazariyasi to'larok va anikroq eritadi?

### **Germaniya immigrantlar uchun o'z eshiklarini kengroq ochishga xarakat qilmokda**

Berlinda yaqinda hukumat komissiyasining qarori e'lon qilindi, unga ko'ra Germaniya davlati xar yili 50 mingga yaqin immigrantlarni qabul qilishi lozim, aks xolda ishchi kuchi etishmasligi og'ir muammoga aylanishi mumkin. Ekspertlar komissiyasi mamlakatga chet elliklar kelishi borasidagi muammolarni o'rganib chiqdi. Bundan chiqarilgan asosiy xulosa shundan iborat bo'ldiki, yosh va malakali mutaxassislar Germaniyaga kelmaydigan bo'lsa, tug'ilish keskin sur'atlar bilan kamayib borayotgan bu paytda iqtisodiy taraqqiyot va yuqori xayot tarzi kabi orzular xom xayoligicha qolib ketaverishi mumkin.

Buning uchun Germaniyaga asosan uch turdagi immigrantlarni jalb qilish kerak bo'ladi. Nisbatan yosh va 45 yoshgacha bo'lgan malakali 20 mingta chet ellik mutaxassislar Germaniyada chegaralanmagan muddatda yashash va shu erda ishlash xukukini qo'lga kiritadilar. Buning uchun nomzodlarni balli sistema yordamida sinovdan o'tkaziladi. Nozodlar qanchalik yosh, malakali va tajribali bulsa ularga shunchalik ko'p ball qo'yiladi. Chet tillarini, xususan nemis tilini bilish va

farzandlarning borligi Germaniyaga borish imkoniyatini yanada oshiradi. Ikkinchi kategoriyada xam 20 mingta nomzodlar saralanib olinadi. Bunga hozirgi vaqtda Germaniyada juda kamyob mutaxassislik egalari kiritiladi. Ular Germaniyada vaqtinchalik yashash va ishlash xuquqini qo'lga kiritishadi. Immigrantlarning uchinchi kategoriyasida maktablarning bitiruvchilarini jalb qilish nazarda tutilgan. Ular Germaniyada professional texnik ma'lumot olishlari mumkin va xoxishiga ko'ra Germaniyada doimiy qolishlari mumkin. Shu bilan birga chet ellik olimlarning Germaniyaga kelishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish ko'zda tutilgan.

Davlat tomonidan beriladigan yordamga chet eldan kelib Germaniyada uz ishini ochmoqchi bo'lganlar ishonishlari mumkin. Bu masalan, kimeviy tozalash korxonasi, avtoustaxona yoki restoran va xatto bank xam bo'lishi mumkin. Asosiysi soliqlarni o'z vaqtida tulasdir.

### **Topshiriklar**

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning qaysi turi to'g'risida gap ketmokda? Va qaysi muammoni xal qilish lozim?
2. Immgratsiyaning qaysi ko'rinishlari haqida to'xtab o'tildi?
3. Germaniya immigratsion siesatning qaysi instrumentlarini ishlatmokda?
4. Germaniya immigrantlarini qabul qilib qaysi imkoniyatlaga ega bo'ladi?

## VII. GLOSSARIY

<b>“Brain drain”</b>	<b>Utechka mozgov</b>	<b>“Aqlli kishilarning ketib qolishi”</b>	- mamlakatning intellektual salohiyatli vakillarini chet elda ishga joylashish maqsadida chiqib ketishi.
<b>Stock</b>	<b>Aksiya</b>	<b>Aksiya</b>	– qimmatbaho qog‘oz, u hissadorlik jamiyatini rivojlantirishga mablag‘ sarflanganligi dalolati bo‘lib, uning egasiga hissadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividend tariqasida olish huquqini beradi.
<b>Association</b>	<b>Assotsiatsiya</b>	<b>Assotsiatsiya</b>	– xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning ixtiyoriy birlashmasi.
<b>Employment</b>	<b>Zanyatost</b>	<b>Bandlik</b>	– mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.
<b>Bancrupt</b>	<b>Bankrot</b>	<b>Bankrot</b>	-xo‘jalik sudi tomonidan e‘tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kruditorlar talablarini to‘la xajmda qondirishga yoki majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarishga qodir emasligi.
<b>The requirements of the Basel Committee</b>	<b>Trebovaniya Bazelskogo komiteta</b>	<b>Bazel qo‘mitasi talablari</b>	– bank tizimining barqaror amal qilishi hamda o‘z majburiyatlarini bajara olishini ta‘minlash uchun o‘rnatilgan xalqaro me‘yorlar majmui bo‘lib, u kapitalning etarlilik darajasini, banklarni nazorat qilish jarayoniga hamda bozor

			intizomiga qo'yilgan talablarni ifodalaydi.
<b>The Customs Union</b>	<b>tamojenniy soyuz</b>	<b>Bojxona ittifoqi</b>	- ikki va undan ortiq davlatlarning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan tarif siyosatini o'tkazishidir.
<b>customs tariff</b>	<b>tamojenniy tarif</b>	<b>Bojxona tarifi</b>	- tovar oqimlarining chegarani kesib o'tishida davlat tomonidan olinadigan soliq miqdori ko'rsatilgan tartiblangan tovarlar ro'yxati
<b>The market</b>	<b>Rinok</b>	<b>Bozor</b>	- sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi mahsulot sotish va xarid qilish bo'yicha erkin munosabatlar tizimi. Bozorlar o'z hududiy masshtabiga ko'ra lokal, milliy va xalqaro bozorlarga bo'linadi. Oldi-sotdi ob'ekti bo'lib, iste'mol tovarlari, resurslar, (mehnat, kapital, yer, tadbirkorlik qobiliyati, axborot) va xizmatlar hisoblanadi.
<b>budget deficit</b>	<b>byudjetniy defitsit</b>	<b>Byudjet defitsiti</b>	- byudjet xarajatlarning byudjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.
<b>The income</b>	<b>Doxod</b>	<b>Daromad</b>	- tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat natijasida pul yoki natura shaklida olinadigan mablag'lar.
<b>State budget</b>	<b>gosbyudjet</b>	<b>Davlat byudjeti</b>	- davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.
<b>deflation</b>	<b>deflyatsiya</b>	<b>Deflyatsiya</b>	- inflyatsiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul - kredit tadbirlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

<b>The demographic explosion</b>	<b>Demografich eskiy vzriv</b>	<b>Demografik portlash</b>	- jahonning kam rivojlangan va kambagal mamlakatlarida nazorat kilib bo'lmaydigan darajada aholi sonining o'sishi.
<b>diversify</b>	<b>diversifitsirovat</b>	<b>Diversifikatsiya</b>	– (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohasini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.
<b>The dividend</b>	<b>Dividend</b>	<b>Dividend</b>	– hisadorlik jamiyati foydasining (soliqlar to'lanib, barcha qarz beruvchilar bilan hisob-kitob qilinganidan keyingi) hisadorlar o'rtasida ular qo'lidagi aksiyalarga mutanosib tarzda taqsimlanadigan qismi.
<b>The export quota</b>	<b>eksportnaya kvota</b>	<b>Eksport kvotasi</b>	- mamlakat eksporti hiymatining unig yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ga nisbati (foizlarda).
<b>embargo</b>	<b>embargo</b>	<b>Embargo</b>	- alohida mamlakat yoki davlatlar guruhi bilan savdoni butunlay ta'qiqlash
<b>free trade zone</b>	<b>Zona svobodnoy trgovli</b>	<b>Erkin iqtisodiy hudud</b>	-mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to'lovlari, ijara, viza olish, valyuta ayirboshlash, mehnatga

			yollashning qulay tartiblari belgilangan bo'ladi.
<b>Stock market</b>	<b>fondoviy rinok</b>	<b>Fond bozori</b>	- qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.
<b>franchising</b>	<b>franchayzing</b>	<b>Franchayzing</b>	- bir kompaniyaning boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanish.
<b>GATT</b>	<b>GATT</b>	<b>GATT</b>	-Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuv - tashqi savdo operastiyalarini o'tkazishda belgilangan tamoyillarga amal qilishga rozi bo'lgan mamlakatlarni birlashtiruvchi savdo va tarif masalalari bo'yicha xalqaro akTayvan
<b>immigration quota</b>	<b>immigratsionnaya kvota</b>	<b>Immigratsion kvota</b>	xorijiy fuqarolarning kirib kelishini davlat tomonidan miqdoriy cheklash.
<b>The inflation rate</b>	<b>Uroven inflyatsii</b>	<b>Inflyatsiya darajasi</b>	- ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o'zgarishi.
<b>innovative technologies</b>	<b>innovatsionn ie texnologii</b>	<b>Innovatsion texnologiyalar</b>	- iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmui bo'lib, o'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.
<b>investment credit</b>	<b>investitsionni y kredit</b>	<b>Investitsion kreditlar</b>	- ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizastiyalash va rekonstrukstiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalar hamda qimmatli qog'ozlarni



			sotib olish maqsadida olingan uzoq muddatli kreditlar.
<b>The investment</b>	<b>Investitsiya</b>	<b>Investitsiya</b>	– bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag’lari, banklarga qo’yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog’ozlar (akstiya, obligastiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, listenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.
<b>investitsionni y klimat</b>	<b>investitsionni y klimat</b>	<b>Investitsiya muhiti</b>	– investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.
<b>investor</b>	<b>investor</b>	<b>Investor</b>	- xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati sub’ektlari. Investorlar ob’ektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo’ladi.
<b>Economic activity</b>	<b>Ekonomicheskaya deyatelnost</b>	<b>Iqtisodiy faoliyat</b>	– cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo’lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste’molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog’liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar majmui.
<b>economic integration</b>	<b>Ekonomicheskaya integratsiya</b>	<b>Iqtisodiy integratsiya</b>	- hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo’li orqali milliy xo’jalik komplekslarini o’zaro yaqinlash va bir-biriga kirib borishi jarayoni.

<b>economic alliance</b>	<b>ekonomicheskiy soyuz</b>	<b>Iqtisodiy ittifoq</b>	- iqtisodiy integratsiyaning oliy ko'rinishi, u umumiy huquqiy me'yorlar, soliq bazasini soddalashtirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish, yagona valyutaga o'tish kabilar bilan tavsiflanadi.
<b>Economic growth</b>	<b>Ekonomicheskiy rost</b>	<b>Iqtisodiy o'sish</b>	– mamlakat miqyosida yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga yildan-yilga barqaror o'sib borish jarayoni.
<b>Economic resources</b>	<b>Ekonomicheskie resursi</b>	<b>Iqtisodiy resurslar</b>	– tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmui.
<b>Economy</b>	<b>Ekonomika</b>	<b>Iqtisodiyot</b>	– mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jaliklardan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o'rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o'ta murakkab ijtimoiy tizim.
<b>Manufacture</b>	<b>Proizvodstvo</b>	<b>Ishlab chiqarish</b>	– biznes korxonalarining asosiy faoliyat turi bo'lib, bu jarayon cheklangan resurslardan foydalangan holda amalga oshiriladi.
<b>The World Bank</b>	<b>Vsemirniy bank</b>	<b>Jahon banki</b>	– 1944 yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.
<b>World market</b>	<b>mirovoy rinok</b>	<b>Jahon bozori</b>	- moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko'rinishidagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish,

			taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol boskichlarni o'z ichiga oluvchi XIM sub'ektlari (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar)ning o'zaro iqtisodiy ta'sirlashish global muhitidir.
<b>World market conditions</b>	<b>Kon'yunktur a mirovogo rinka</b>	<b>Jahon bozori kon'yunktura si</b>	-jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.
<b>World Market Workers Labor</b>	<b>Mirovie rinok rabochie truda</b>	<b>Jahon ishchi kuchi bozori</b>	- milliy xo'jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi, tabiati va joylashuviga sezilarli ta'sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o'rtasida jami migrastion aylanmasi.
<b>The World Trade Organization</b>	<b>Vsemirnaya trgovaya organizatsiya</b>	<b>Butunjaho n savdo tashkiloti</b>	- xalqaro savdoni institustional va xuquqiy asosini tashkil etuvchi mustaqil davlatlararo tashkiloTayvan
<b>cartel</b>	<b>kartel</b>	<b>Kartel</b>	- tashqi savdo assostiastiyasi (uning a'zolari alohida tovar guruhlari bo'yicha ishlab chiqarish va narx siyosatini muvofiqlashtirib olishadi).
<b>Group of twenty</b>	<b>Bolshaya dvadtsatka</b>	<b>Katta yigirmatalik</b>	– 20 ta yirik mamlakatlar guruhi bo'lib, unga jahondagi eng boy mamlakatlar va yirik rivojlanayotgan davlatlar kiradi va ular xissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 90 foiz ulushi to'g'ri keladi.
<b>Conjuncture</b>	<b>Kon'yunktura</b>	<b>Kon'yunktura</b>	– bozor mexanizmi sharoitlarida rivojlanishning qonuniyatli shakllari davlat tomonidan tartibga solinishi va raqobatning, iste'molchilar, korporatsiyalar

			hamda davlat muassasalari va korxonalari tomonidan qaror qabul qilishdagi mutaqillikning muvozanati bilan belgilanuvchi jarayonlar: muayyan iqtisodiy faoliyat omillari va shart-sharoitlari yig'indisi.
<b>Concern</b>	<b>Kontsern</b>	<b>Kontsern</b>	– ma'lum bir turdagi vazifalarni bajarish uchun vaqtincha tuzilgan ilmiy-texnikaviy, investitsion tarkibiy, moliyaviy va tashqi iqtisodiy siyosatni hamda tegishli resurslarni markazlashtiruvchi korxonalar birlashmasi.
<b>Cooperative ties</b>	<b>Kooperativni e svyazi</b>	<b>Kooperatsiya aloqalari</b>	– turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum mahsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish.
<b>Corporation</b>	<b>Korporatsiya</b>	<b>Korporatsiya</b>	– hissadorlik jamiyati yoki hissadorlik birlashmasi ko'rinishidagi huquqiy shaxs shakli. U chiqarilgan aksiyalar qiymati bilan cheklangan majburiyatlar bo'yicha mas'uliyatli bo'ladi, o'z nomidan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlarni bajarish, kontraktlar tuzish, qarz olish yoki berish, boshqa har qanday fuqarolik harakatlarini amalga oshirish huquqiga ega.
<b>The credit</b>	<b>Kredit</b>	<b>Kredit</b>	– qarz mablag'ining harakat shakli. Qaytarish va to'lov (foizni to'lash) shartlari bilan beriladigan pul yoki tovar shaklidagi qarz kredit beruvchi bilan qarz oluvchining iqtisodiy munosabatlarini ifodalaydi. Kreditning tijorat, davlat, bank,

			iste'mol, xalqaro shakllari mavjud.
<b>labor market</b>	<b>rinok truda</b>	<b>Mehnat bozori</b>	-mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, unga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasi.
<b>modernization</b>	<b>Modernizatsiya</b>	<b>Modernizatsiya</b>	-ob'ektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.
<b>The financial market</b>	<b>Finansoviy rinok</b>	<b>Moliya bozori</b>	– moliya mablag'larini vaqtincha haq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo'lgan munosabatlardir.
<b>Financial and banking system</b>	<b>Finansovaya i bankovskaya sistema</b>	<b>Moliya-bank tizimi</b>	-tarixan shakllangan va belgilangan qonun qoidalar asosida faoliyati yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit muassasalari majmuidir.
<b>preferences</b>	<b>Predpochteniya</b>	<b>Preferensiya</b>	– iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxonalar va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.
<b>protectionism</b>	<b>proteksionizm</b>	<b>Proteksionizm</b>	– davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamlakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori

			bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqiqlanadi.
<b>Monetary and Credit Policy</b>	<b>Denejno-kreditnaya politika</b>	<b>Pul - kredit siyosati</b>	– davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.
<b>external debt</b>	<b>vneshniy dolg</b>	<b>Tashqi qarz</b>	– mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.
<b>Foreign trade</b>	<b>vneshnetorg oviy</b>	<b>Tashqi savdo</b>	– bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.
<b>Foreign Trade Policy</b>	<b>Politika vneshney torgovli</b>	<b>Tashqi savdo siyosati</b>	– bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati.
<b>Technology</b>	<b>Texnologiya</b>	<b>Texnologiya</b>	– tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi amaliy bilimlar.
<b>Direct investments</b>	<b>Pryamie investitsii</b>	<b>To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar</b>	- foyda olish bilan birgalikda kapital ko'yilayotgan ob'ekt ustidan nazoratni ta'minlash xuquqini beruvchi kapital qo'yilmalari.
<b>balance of payment</b>	<b>Platejniy balans</b>	<b>To'lov balansi</b>	-muayyan muddat davomida mamlakatning xorijiy davlatlarga to'lagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga xorijiy davlatlardan tushgan to'lovlar summolari nisbatini tavsiflaydi. To'lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan tovarlar va xizmatlar haqi, xorijiy investitsiyalar, xorijda

			diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari, fuqarolar va qo'shma korxonalarining chet elga pul o'tkazmalari va boshqalar kiradi.
<b>The total market</b>	<b>obshchiy rinok</b>	<b>Umumiy bozor</b>	- ishlab chiqarish omillarini milliy chegaralar orqali erkin ko'chib o'tishi ta'minlanadigan iqtisodiy integratsiya ko'rinishi.
<b>currency</b>	<b>valyuta</b>	<b>Valyuta</b>	- ma'lum bir davlatning qonun bilan o'rnatilgan pul vositasi (milliy valyuta), bir yoki bir necha etakchi mamlakatlarning valyutasi ko'rinishidagi jahon rezerv pullari
<b>International cooperation</b>	<b>mejdunarodnoe kooperatsiya</b>	<b>Xalqaro kooperatsiyasi</b>	- ishlab chiqarish bosqichlarining o'zaro bir-birini to'ldirishi va ularni muvofiqlashtirish maqsadida milliy iqtisodiy komplekslarning xamkorlik qilishi.
<b>International Economic Relations</b>	<b>Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya</b>	<b>Xalqaro iqtisodiy munosabatlar</b>	-mamlakatlar va hududlar o'rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo'jalik aloqalari tizimi.
		<b>Xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi</b>	-mamlakatlar o'rtasidagi mexnat taqsimoti ko'rinishi bo'lib, unda o'zlarining ichki extiyojlaridan ortiqcha bir turdagi maxsulotlar tayyorlash bilan shugullanuvchi milliy ishlab chiqarishlarning tabaqalanishi yuz beradi.
<b>international organizations</b>	<b>mejdunarodnye organizatsii</b>	<b>Xalqaro tashkilotlar</b>	-ularning har biri xalqaro siyosatda o'zlarining faoliyat maqsadlari yo'nalishlariga qarab, yer yuzi taraqqiyotida egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar

			jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.
<b>international transit</b>	<b>mejdunarod niy tranzit</b>	<b>Xalqaro tranzit</b>	-xorijiy yuklarni jo'natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo'lishi shartida tashilishidir. Agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilmasdan tashilsa bevosita xalqaro tranzit, bojxona omboridan foydalanilsa – bilvosita xalqaro tranzit hisoblanadi.
<b>International Monetary Fund (IMF)</b>	<b>Mejdunarod niy valyutniy fond (MVF)</b>	<b>Xalqaro valyuta jamg'armasi</b>	– xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamg'aramasi – a'zo davlatlar o'rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkiloTayvan
<b>Service sector</b>	<b>sektor uslug</b>	<b>Xizmat ko'rsatish sohasi</b>	– ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'lmagan iste'mol qiymatlarini yaratishga yo'naltirilgan sohalari. U o'z ichiga moddiy xizmatlar ko'rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko'rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish,



			malaka oshirish va boshqalar)ni oladi.
<b>Gross domestic product</b>	<b>Valovoy vnutrenniy produkt</b>	<b>Yalpi ichki mahsulot</b>	-mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati
<b>New industrial countries</b>	<b>Novie industrialnie strani</b>	<b>Yangi industrial mamlakatlar</b>	- iqtisodiy jixatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruhi.

## VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabr “2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida”gi O'RQ-589-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgust “O'zbekiston Respublikasida investitsiya muxitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5495-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabr PQ-4022-sonli “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy

salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyun "Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5755-sonli Farmoni.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabr "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli Qarori.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 9 yanvar "O'zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4563 -sonli Qarori.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

25. Bondarev A.K. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya: Uchebnik/ A.I.Evdokimov, A.K.Bondarev, S.M.Drozdov; Pod red. A.I.Evdokimov. – M.: Prospekt, 2013, 656 s.

26. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xadjibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: Darslik. – T.: Baktaria, 2015. – 584 b.

27. Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R.. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 447 bet.

28. Mejdunarodnie valyutno-kreditnie otnosheniya: Uchebnik dlya vuzov /Pod red.L.N.Krasavinoy. – 4-e izd., pererab. i dop. – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2014. – 543 s.

29. Moroz I.I. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya (dlya bakalavrov) / I.I.Moroz. – M.: KnoRus, 2013. – 256 s.

30. Ponomareva E.S. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnoe posobie/E.S.Ponomareva, L.A.Kriventsova. – M.: YuNITI, 2013. - 287 s.

31. Radjabova Z.K. Mirovaya ekonomika: Uchebnik / Z.K. Radjabova. - 3-e

- izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2010. – 304 s. – EBS: <http://znanium.com/>  
 Kudrov V. M. Mirovaya ekonomika: Ucheb. posobie / V.M. Kudrov. – M.: Magistr: NITs INFRA-M, 2013. – 416 s. – EBS: <http://znanium.com/>
32. Tuxliev N. Osiyo taraqqiyot modeli. T.: O'zbekiston, 2015. –176 b.
  33. Tuxliev N. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya: rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlari. – T.: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2020. – 116 b.
  34. Tuxliev N. O'zbekiston iqtisodiyoti anatomiyasi. – T.: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2019. – 404 b.
  35. Chebotarev N.F. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnik dlya bakalavrov / N.F.Chebotarev..- M.:Dashkov i K, 2013. – 352 s.
  36. Ekonomika stran blijnego zarubejya: Ucheb.posobie / Mos. Gos. i-t mejdunar. otnosheniy (un-t) MID Rossii; Pod red. A.S.Bulatova - M.: Magistr: INFRA-M, 2011. - 352 s.- EBS : <http://znanium.com/>
  37. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
  38. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
  39. Global Financial Markets./7 the edition. Stephen Valdez & Philip Molyneux. Palgrave MacMillan, 2013. 537r.
  40. Greg Ip. The Little Book of Economics: How the Economy Works in the Real World. John Wiley & Sons, 2012. - 288 pages.
  41. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publiciations. 2015. 183.
  42. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.
  43. Howard Richards. Understanding the Global Economy. Peace Education Books, 2014. - 311 pages.
  44. James Gerber. International Economics. Fifth Edition. Pearson, 2012. - 471 pages.
  45. Krugman. Obstfeld. Melitz. International Economics. 2014, Prentice Hall.
  46. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
  47. Me Connell, Brue. Economics. 17<sup>th</sup> edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014.
  48. N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2016.
  49. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2015.
  50. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.

#### **IV. Internet saytlar**

51. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) — O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
52. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
53. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) — O'zbekiston Milliy Axborot agentligi
54. [www.ifmr.uz](http://www.ifmr.uz) - Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti.
55. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) - Ziyonet ta'lim portali.

56. [www.economics.ru](http://www.economics.ru) — “Ekonomicheskaya gazeta” gazetasining rasmiy sayti.
  57. <https://openedu.ru/> Otkritoe obrazovanie.
  58. [www.ZiyoNet.uz](http://www.ZiyoNet.uz) – axborot ta’lim tarmog’i.
  59. [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)- Bosh ilmiy-metodik markaz.
-